

AKADEMIK YOZUV FANINING ILMIY-TA'LIMIY JARAYONIDA
REFERATNING AHAMIYATI VA TURLARI**Safoyeva Shodiya Ma'ruf qizi***Sharq universiteti o'qituvchi***E-mail:** dilshodovayasina2023@gmail.com**Orcid:** 0009-0007-9491-1399

Annotatsiya. Mazkur maqolada tanlangan mavzuning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Referat yozish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan o'rinlar xususida atroflicha to'xtalib o'tiladi. Ishda mavzu doirasidagi asosiy tushunchalar ilmiy manbalar asosida izohlanib, ularning mazmuniy xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, mavjud ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilinib, mavzuning hozirgi davrdagi dolzarbligi asoslab beriladi. Yakunida o'rganilgan materiallar asosida umumiy xulosalar chiqariladi. Ushbu maqola orqali referatni shakllantirish talblarini bilib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: *referat, bo'lim, bob, punk, klishe, klishelangan jumla, kompozitsiya, mavzu, muammo.*

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методологические основы выбранной темы. Подробно рассматриваются основные требования и правила, которых следует придерживаться при написании реферата. В работе основные понятия, относящиеся к теме, разъясняются на основе научных источников, раскрываются их содержательные особенности. Также проводится сравнительный анализ существующих научных взглядов и обосновывается актуальность темы на современном этапе. В заключение на основе изученных материалов формулируются общие выводы. Данная статья позволяет получить определённые знания и представления о требованиях, предъявляемых к оформлению и структуре реферата.

Ключевые слова: *реферат, раздел, глава, пункт, клише, клишированное предложение, композиция, тема, проблема.*

Annotation. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the selected topic. The main requirements and rules to be followed in the process of writing a term paper are examined in detail. The study explains the key concepts related to the topic on the basis of scientific sources and reveals their conceptual features. In addition, a comparative analysis of existing scholarly views is conducted, and the relevance of the topic in the contemporary context is substantiated. In conclusion, general findings



are drawn based on the analyzed materials. This article provides a clear understanding of the requirements for structuring and formatting a term paper.

Keywords: *report, section, chapter, point, subsection, cliché, clichéd sentence, composition, topic, problem or issue.*

Biror ilmiy, metodik, pedagogik mavzudagi asarning qisqacha mazmuni haqidagi bayon (yozma ma'ruza) referat hisoblanadi.¹ Referat muallifning o'z asari haqida bo'lsa avtoreferat deyiladi. Avtoreferatda asarning qisqacha mazmuni, yangiliklari, metodik usullari, ilmiy qurilishi, foydalanilgan adabiyotlari ustida fikr yuritiladi. Qo'llanilish jihatiga ko'ra amalda ilmiy va obzor referatlari ko'proq uchraydi. Ilmiy referatlarga fanga, metodikaga, tarbiyaga va texnikaga oid ishlarning qayerda amaliyotda sinab ko'rilganligi haqida ham xabar beriladi.

Referat (lot. refero — axborot beryapman) — biror ilmiy asar, maqola, o'qilgan kitob va sh.k. mazmunining qisqacha yozma yoki og'zaki bayoni sifatida talqin etiladi. O'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqida axborot, tegishli adabiyot va boshqa manbalarning qisqartirilgan sharhli tahlilini o'z ichiga olgan ma'lum mavzudagi ma'ruza sifatida talqin etilgan holatlarni ham uchratish mumkin. Referat, odatda, ilmiy axborot vazifasini o'taydi. Unda muayyan mavzu yoritilishi bilan birga, tegishli ilmiy nazariyalar, ilmiy xulosalar tahlil etilishi va tanqid qilinishi mumkin. Referat yozish jarayonida tadqiqotchi yozilish uslubiga, tilining soddaligiga, ravon va hammaga tushunarli tilda yozilganligiga ahamiyat berishi lozim.

Referat yozish jarayonida quyidagi o'ziga xos jihatlarni inobatga olish lozim:

- Keng miqyosli dalillar, qiyoslashlar, mushohadalar, baholarga ega bo'lmaydi;
- Matnda qanday yangi, muhim jihat bor, degan savolga javob beradi;
- Referatlash qandaydir masalaning bir yoki bir necha manbalarning tasniflanishi, umumlashtirilishi, tahlili va sintezi asosida bayon qilinishini nazarda tutadi.

Referatni rasmiylashtirish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan jihatlar quyida tavsiya sifatida beriladi. Ilmiy rahbarga, fan o'qituvchisiga yoki talab etilgan o'rniga qarab taqdim etiladigan referat kompyuterda 12 shrift bilan, 1,5 interval orqali standart A4 formatli qog'ozda, chap tomonidan 2,5 sm, o'ng tomonidan 1,5 sm, yuqorisi va pasti qismdan kamida 2 sm lik hoshiyalar bilan terilishi kerak. Matn sahifalari albatta raqamlanishi lozim. Ishning raqamlanishi uzluksiz bo'ladi va 3-sahifadan boshlanadi.

1. Gayubova A.K., Yulanova.N.D., "Akademik yozuv" o'quv qo'llanma. Toshkent: TATU. 2022. - 263 bet



Birinchi va ikkinchi sahifalar - bu titul varag‘i va ish rejasi bo‘lib, ular raqamlanmaydi. Sahifa raqami yuqorida o‘rtaga yoki o‘ng tomonga qo‘yiladi. Referat uncha katta bo‘lmagan tadqiqot ishi bo‘lganli bois hajmi 16-20 sahifadan oshmasligi kerak. Referatning tuzilishi quyidgi ketma- ketlikda amalga oshiriladi:

1. Titul varag‘i
2. Mundarija

Mundarija qismining tarkibida quyidagi bandlarni berib o‘tish lozim:

- Kirish;
- Materialning masalalar va kichik masalalar (bandlar)ga bo‘lingan matnli bayoni, muallif foydalangan manbalarga zaruriy qaydlar ham ko‘rsatiladi;
- Xulosa;
- Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.
- Jadvallar, diagrammalar, grafiklar, rasmlar, sxemalardan iborat ilovalar.

Jadvallar, diagrammalar, grafiklar, rasmlar, sxemalardan iborat ilovalar referat tarkibida xohishiy tarzda beriladi. Tadqiqot ishining mazmunidan kelib chiqqan holda talab etilgan o‘rinda foydalaniladi. Referatlar quyidagi mezonlar bo‘yicha ajratiladi²:

Bayon qilish mazmuniga ko‘ra:

1. Reproduktiv
2. Produktiv;

Reproduktiv referat o‘z navbatida referat -rezyume va referat-konspekt kabi turlarga, produktiv referat esa doklad va sharh kabilarni o‘z ichiga oladi.

Manbaani tahlil qilish bo‘yicha 4 turini farqlash mumkin:

1. Qismlig;
2. Monografik;
3. Aspektli;
4. Birlashtirilgan;

Yo‘nalishiga ko‘ra :

1. Maqsadli;

² Gayubova A.K., Yulanova N.D., “Akademik yozuv” o‘quv qo‘llanma. Toshkent: TATU. 2022. - 263 bet



2. Umumiy.

Bayonning to'liqligini hisobga olganligiga ko'ra:

Indikativ;

Axborot beruvchi.

Tayyorlash usuliga ko'ra 4 turi farqlanadi:

- Ijodiy;
- Xizmat;
- Nazorat;
- O'quv.

Indikativ – o'qituvchilar va turli ta'lim bosqichlari pedagoglari foydalanadigan o'quv-tadqiqot topshiriqlari turidir. Referat – bu ko'proq yoki kamroq darajada tadqiqot ishi – muayyan mavzu bo'yicha hisobot sifatida rasmiylashtirilgan matn yoki asosiy tezislar tavsifi bo'lib, uning murakkabligi dastlabki vazifalarga bog'liq. Material turli, ammo dolzarb manbalardan olingan va qayta ishlangan ma'lumotlar asosida yaratiladi. Umumlashtiruvchi xarakterga egadir. Darsliklar, maqolalar, hujjatlar va boshqalardan olingan ma'lumotlarni qisqacha taqdim etadigan oddiy ilmiy ish shakli sifatida tan olinadi.

Referat yaratishni boshlashdan oldin, ushbu turdagi ishlarning turli xil ko'rinishlarini aniqlab olish zarur. Har bir turdagi ishning xususiyatlarini bilish, qo'yilgan vazifalarga muvofiq tadqiqot formatini (tavsif, xabar) to'g'ri tanlash uchun zarurdir.

Matn maqolaga yozilgan referatning tuzilishi va tarkibiy qismlarini shartli ravishda quyidagicha bosqichlarga bo'lish mumkin:

I. Kirish qismi — manbaaning bibliografik tavsifi (matn, maqola, kitob va h.k.);

II. Asosiy referat qismi:

1. Kirish qismi: nutq klishealaridan foydalanib, manbaani bibliografik tavsiflash.

2. Asosiy qism:

a) mavzu; b) muammo; c) kompozitsiya; d) asosiy mazmunning tavsifi; e) tasviriy materialning mavjudligi va maqsadini ko'rsatish.

3. Xulosa qismi manbaa muallifining xulosalari.

III. Yakuniy qism

1. Ma'lumotnoma qurilmasi.

2. Referat muallifi axborotlarning yangiligi, ahamiyati, dolzarbligini baholash,



xulosa qilish, ko‘rib chiqish kabi vazifalarni bajaradi.

Referat tayyorlash jarayonida manbaalardan foydalaniladi. Foydalanilgan manbaalar aynan holatda berilmaydi. Unga ba’zi bir o‘zgartirishlar, shaxsiy fikrlar, faktlar va dalillar kiritgan holda yoziladi.

Xulosa qilib aytganda, referat ta’lim jarayonida muhim ilmiy-uslubiy janr bo‘lib, u talabalarning mustaqil izlanish olib borish, manbalar bilan ishlash va ilmiy fikrni yozma shaklda ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Referat yozish jarayoni bilimlarni chuqurlashtirish, mavzuni tizimli o‘rganish hamda tahliliy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi hujjat turlaridan biridir.

Mazkur ishda referatning ta’limiy va ilmiy ahamiyati yoritilib, uning asosiy turlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida referatning axborot beruvchi, tahliliy va umumlashtiruvchi vazifalarni bajarishi aniqlashtirildi. Shuningdek, referatlarning mavzuni bayon etish uslubiga, maqsadiga va tuzilishiga ko‘ra turli turlarga ajratilishi ularning ilmiy jarayondagi o‘rnini belgilab beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, referat yozish talabalarda akademik yozuv madaniyatini shakllantiradi, ilmiy uslub me’yorlariga rioya qilishni o‘rgatadi hamda keyingi ilmiy ishlar — kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlar uchun zarur bo‘lgan bilim va malakalarni mustahkamlaydi. Shu bois referat oliy ta’lim tizimida muhim o‘quv-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K.A.Gayubova, M.Yu. Yulanova “Akademik yozuv” o‘quv qo‘llanma. Toshkent: TATU. 2022. - 263 b.
2. N. Jiyanova, O. Mo‘ydinova. Nutq madaniyati. – T.: “Ilm ziyo zakovat”, 2019. 221 b.
3. Qo‘ng‘urov R., Begmatov Ye., Tojiyev Yo. “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari”, - T.: “Fan”, 1992, 254b.
4. M.Abdurahmanova. O‘zbek tili fanidan uslubiy qo‘llanma. “Ish yuritish tili va uslubi”. T., 2018.